

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

2 -SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
2-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Asqarova Muhabbat Ibraximovna
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович, Акбарова Малика Ильхомовна <i>Стратегические направления повышения занятости населения в Респуб- лике Узбекистан: анализ современного состояния и прогнозирование на период до 2030 года.....</i>	4
Saidjabbor Shoiri Saidg'affor q'izi <i>Гендер тенглиги ва минтақаларнинг барқарор ривожланишини таъминлашнинг хорижий амалиёти.....</i>	17
Файзиева Дилафруз Шухратовна <i>Демографик ўсиш ва иқтисодий ривожланишнинг ўзаро алоқадорлиги.....</i>	34
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li <i>O'zbekiston aholi soniga tashqi mehnat migratsiyasining ta'sirini baholash.....</i>	46
Xudayberdiyev Islamjan Zakirovich <i>Aholining kapital bozorda ishtirok etishga bo'lgan qiziqishini baholash.....</i>	55
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li <i>Hududlarda yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayondan foydalangan holda zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	63
Yunusova Ugiloy Bolqiboyevna <i>Problems and solutions in organizing public events in Uzbekistan.....</i>	74
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Moliyaviy salohiyatni baholash metodologiyasini shakllanishida makroiqtisodiy indikatorlarning ahamiyatliligi.....</i>	88
Soatov Farhod Komiljon o'g'li <i>Raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida boshqaruv hisobotlarini shakllantirish</i>	103
Жулиева Гулноз Юлдашевна, Джулибеков Нурмат Каршибекович <i>«Зелёная» экономика Республики Узбекистан, перспективы развития.....</i>	113
Умурзаков Баходир Хамидович <i>Меҳнат ресурсларининг сифат ва малакавий таркибини шакллантиришда инновацион тенденциялардан фойдаланишнинг хориж тажрибаси таҳлили.....</i>	120
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи <i>Банклар ресурс базасини мустаҳкамлашда капиталнинг ўрни.....</i>	129
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi <i>O'zbekiston fiskal siyosatining mehnat migratsiyasi va bandlikka ta'siri: konseptual tahlil</i>	135
Jurayev Elyorbek Sobirjon o'g'li <i>Kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari.....</i>	
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li <i>Xorijiy investitsiyalar va sanoat korxonalarini modernizatsiyalash: muammo va imkoniyatlar</i>	160
Suvonov Bekniyoz Baxtiyor o'g'li <i>Mehnat ko'rsatkichlari tahlilining xorij tajribasi va undan respublikamizda qo'llash jihatlari.....</i>	140

MOLIYAVIY SALOHIYATNI BAHOLASH METODOLOGIYASINI SHAKLLANISHIDA MAKROIQTISODIY INDIKATORLARNING AHAMIYATLILIGI

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Hududiy ta'lim
muassasalari va markazlar bilan ishlash bo'limi

Bosh mutaxassisi Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha falsafa doktori PhD

ORCID: 0000-0003-4933-1233

a.makhmudov@tsue.uz

Annotatsiya. Moliyaviy salohiyatni baholash metodologiyasini aniqlash uchun ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish, ta'sir qiluvchi omillar ahamiyatliligini aniqlash va ular o'rtasidagi bog'liqlikni hisoblash natijalari mamlakat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish strategiyasini tuzishda, hududlarni iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda, boshqaruv jarayonida samarali qarorlarni qabul qilishda, mahalliy byudjet daromadlarini mustahkamlashda asosiy instrument sifatida namoyon bo'ladi. Makroiqtisodiy indikatorlar mamlakat moliyaviy salohiyatining oshishiga va moliyaviy salohiyatning makroiqtisodiy indikatorlarning oshishida muhim o'rin tutadi. Bir biri bilan o'zaro bog'lik ko'rsatkichlar mazkur maqolada tahlil qilingan va moliyaviy salohiyatdagi ahamiyatlilik darajasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Moliyaviy salohiyat, iqtisodiy salohiyat, moliyaviy resurslar, soliq-budjet siyosati, markazlashtirilgan pul fondlari, Yalpi ishki maxsulot, mahalliy byudjet daromadlari

ЗНАЧИМОСТЬ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ИНДИКАТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОГО ПОТЕНЦИАЛА

Махмудова Аслиддина Сирожиддин угли

Ташкентский государственный экономический
университет Региональное образование

отдел по работе с учреждениями и центрами

Главный специалист, PhD

Аннотация. Результаты формирования системы показателей для определения методики оценки финансового потенциала, определения значимости влияющих факторов и расчета взаимосвязей между ними выступают в качестве основных инструментов при формировании

Стратегии социально – экономического развития страны, управлении экономическим развитием регионов, принятии эффективных решений в процессе управления, консолидации доходов местного бюджета. Макроэкономические показатели способствуют росту финансового потенциала страны и играют важную роль в повышении финансового потенциала макроэкономических показателей. Взаимосвязанные друг с другом показатели анализируются в данной статье и раскрывается степень значимости финансового потенциала.

Ключевые слова. Финансовый потенциал, экономический потенциал, финансовые ресурсы, налогово-бюджетная политика, централизованные денежные фонды, валовой бизнес-продукт, доходы местных бюджетов

THE IMPORTANCE OF MACROECONOMIC INDICATORS IN THE FORMATION OF A METHODOLOGY FOR ASSESSING FINANCIAL POTENTIAL

Makhmudov Asliddin Sirojiddin ugli

Tashkent State University of Economics Regional Education
department for working with institutions and centers
Chief Specialist, PhD

Annotation. The results of the formation of a system of indicators for determining the methodology for assessing financial potential, determining the significance of the influencing factors and calculating the correlation between them are manifested as the main instrument in the formation of a country's socio – economic development strategy, managing economic development of territories, making effective decisions in the management process, strengthening local budget revenues. Macroeconomic indicators occupy an important place in the increase in the financial potential of the country and in the increase in macroeconomic indicators of financial potential. Correlation indicators with one were analyzed in this article and revealed the level of significance in financial potential.

Keywords. Financial potential, economic potential, financial resources, tax-budget policy, centralized monetary funds, gross labor products, local budget revenues

Kirish.

Bugungi kunda har qanday davlat o'zining iqtisodiyotini rivojlatirish va raqamlashtirish maqsadida barqaror moliyaviy salohiyatga erishishni maqsad qilib olgan. Jumladan, moliyaviy salohiyat mamlakatimizda eng avvalo, samarali soliq-budjet siyosatidan oqilona foydalangan holda milliy iqtisodiyotimizda

markazlashtirilgan pul fondlarini tuzish va undagi daromad va harajatlarning optimal ko'rinishlariga erishish va bu orqali makroiqtisodiy indikatorlar darajasini Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan targetga erishish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Budjet haqida so'z borar ekan, uning turli darajalarini ko'rib chiqishimiz zarur. O'zbekiston Respublikasining budjet kodeksiga ko'ra mamlakatimiz budjet tizimi - O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga bo'linadi. Viloyat budjetlari esa o'z navbatida tuman va shahar budjetlaridan iborat.

Yuqoridagi budjetning turli darajalaridan ko'rinib turibdiki, viloyat va respublika budjetining daromadlarining shakllanishida tuman va shahar budjetlari muhim o'rin tutadi. Mahalliy budjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatishlarida asosiy moliyaviy manba bo'lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha kompleks chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda va ularning reyting baholash tizimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.05.2021 yildagi PQ – 4702 son “Hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida” qarori qabul qilindi. Bu qarorga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hozirgi holatini chuqur tahlil qilishda istiqbolga yo'naltirilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish uchun uni kompleks baholashning hamda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqqan holda ularga tezkorlik bilan va lozim darajada javob qaytarishning yagona muvofiqlashtirilgan mexanizmi yo'qligi haqida ta'kidlangan.

Hududlarni barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularni kompleks va mutanosib ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishini, iqtisodiy salohiyatini samaradorligini moliyaviy salohiyatini baholashning aniq metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etish mahalliy byudjet daromadlarining mustahkamligini ta'minlashning muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Barcha tadqiqotchi olimlar hududlarning moliyaviy salohiyat tushunchasining asosiy nuqtasi sifatida moliyaviy resurslar deb e'tirof etmoqda. Buning sababi, moliyaviy salohiyatni natijaviy omili moliyaviy resurslar tashkil etadi, va resurslarga asoslangan olimlarning yondoshuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ammo, moliyaviy resurslar bilan moliyaviy salohiyatni tenglashtirib

bo'lmaydi. Masalan, S.Zenchenko hududlarning moliyaviy salohiyati mazmunini uchta tarkibiy qismlari bilan ifodalaydi[3]:

- 1) Hududlarning barqaror ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan resurs bazasini tashkil etish qobiliyati;
- 2) Hududlarning iqtisodiy o'sish va rivojlanishi uchush mavjud barcha moliyaviy resurslari yig'indisi;
- 3) Hududlarning fors - major holatida, tashqi negativ omillarni bartaraf etish uchun shakllangan rezerv moliyaviy resurslaridir.

A.Verbienko fikriga ko'ra, hududning barcha moliyaviy oqimlari yig'indisi moliyaviy salohiyatini tashkil etadi deb, firmalarning joriy va investitsiya harajatlarini, uy xo'jaliklarining iste'mol va jamg'armalarini, hudud mahalliy byudjet daromadlarini kiritadi[4].

Yu.Korchagin hudud barcha fondlar yig'indisini moliyaviy salohiyat sifatida qaraydi, uning tarkibi, tuzilishi hamda miqdoriy baholanishini yalpi hududiy mahsulotning taqsimlanishi va hududda tarmoqlar faoliyatini moliyalashtirishning ichki imkoniyatlari bilan aniqlaydi[5].

G.Merzlikina, L.Shaxovskaya va O.Rastyapina - hududlarning moliyaviy salohiyatini hudud iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qilishni taklif qiladi va ishlab chiqarish salohiyati, bozor salohiyati bilan uyg'unligini e'tirof qiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish salohiyatiga – ishlab chiqarish hajmini, asosiy vositalar imkoniyatlarini, hom-ashyo va materiallardan foydalanish imkoniyatlarini, malakali kadrlar imkoniyatlarini kiritadi; bozor salohiyatiga – shakllangan talab, korxonalarining bozordagi ulushini va mehnat bozorini kiritadilar. Moliyaviy salohiyatga – ishlab chiqarish jarayonida shakllangan moliyaviy ko'rsatkichlarni (foydalilik, likvidlilik, to'lov qobiliyatlilik) va invstitsiya imkoniyatlarini kitritadilar[6].

Bizning fikrimizcha, hududlarning moliyaviy salohiyat tushunchasini ochib beradigan har bir yondoshuvning afzalliklarini va kamchiliklarini inobatga olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, **Hududlarning moliyaviy salohiyati** - bu ishlab chiqarilgan milliy daromadning bir qismi sifatida, davlat (mahalliy byudjet daromadlari), xo'jalik yurito'vchi sub'ektlar (qayta ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida qatnashadigan), moliya – bank tizimi institutlari (jalb qilingan va o'z mablag'lari) va aholining (real umumiy pul daromadlari) jami moliyaviy resurslarini tashkil etib, hududning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish strategiyasi maqsadlariga yo'naltirilgan, hozirgi vaqtda yaratilayotgan va oldindan to'plangan moliyaviy resurslari yig'indisidir[7].

Bizning berilgan ta'rifimizda hududlarning moliyaviy salohiyati sifatida:

1. Iqtisodiy munosabatlar tizimi qo'rsatib berilmoqda, chunki bu tushuncha kompleks tizimli yondoshuvni talab qiladi;

2. Ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning strategik, taktik maqsadlarga yo‘naltirilgan moliyaviy resurslar bu hududda mavjud bo‘lgan, foydalanishga yo‘naltiriladigan, jami moliyaviy resurslar nazarda tutilmoqda;

3. Moliyaviy imkoniyatlar, hududlarning hali ishga tushurilmagan moliyaviy zahiralari nazarda tutilmoqda;

Hudud moliyaviy slohiyati hudud ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining strategiyasini belgilab beradi. Bu o‘z navbatida hudud moliyaviy salohiyatini shakllantirishga qaratilgan kompleks sifat va miqdoriy shakllarda ifodalangan, kelajakda rivojlanish parametrlarini belgilab beradigan konsepsiyadir. Bu konsepsiyaning asosiy maqsadlari qo‘yidagilardan iborat:

1. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun ustuvor strategik vazifalarni belgilab olish va qulay sharoitlarni shakllantirish;

2. Iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari uchun moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashda mahalliy byudjet daromadlarini mustahkamlash;

3. Hududda investitsiya jozibadorligini oshirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish;

4. Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar asosiy va aylanma mablag‘larini va aholini uzluksiz moliyalashtirish uchun bank kredit tizimini barkarorligini ta‘minlash va kredit jozibadorligini oshirish.

Hudud moliyaviy salohiyatining barqarorligi mahalliy byudjetlar daromadlar mustaqilligining asosiy tavsifdaridan biridir, uning baholanishi hudud moliyaviy mustaqilligini aniqlashning zaruriy bosqichi bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Muammoni o‘rganish jarayonida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy va dinamik tahlil, monografik tahlil, statistik guruhlash, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, variatsiya ko‘rsatkichlari, statistik jadval va grafiklar, ekspert baholash usullari keng qo‘llanilgan.

Tahlil va natijalar.

O‘zbekiston Respublikasida har bir hudud geografik joylashuvi, tabiiy resurslar holati, mehnat resurslari nuqtai nazaridan, iqtisodiy institutlar majmui va faoliyat samaradorligi bilan farq qiladi. Har bir hudud o‘zida ijobiy va salbiy (raqobatbardosh va barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan) hususiyatlarni mujassamlashtirgan bo‘lib, ularning baholanishi mamlakatda umumiy iqtisodiy salohiyatining rivojlanishiga qarab farq qilishi mumkin. Har bir hudud rivojlanishini baholashning ob‘ektiv ravishda aniqlangan, iqtisodiy geografik joylashuvidan uning iqtisodiy salohiyati va uning tarkibidagi asosiy o‘rinni egallagan moliyaviy salohiyatning ma‘lum darajasigacha baholangan o‘rniga ega. Shuning uchun moliyaviy salohiyat darajasini baholash zarurligi strategik xarakterga ega bo‘lib, hududning resurslar bilan ta‘minlanganlik darajasining

hozirgi joriy holati va kelajakdagi bashorat ko'rsatkichlarini ham aniqlab beradi, bu o'z navbatida hududning moliyaviy, investitsion resurslarini samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlik darajasini oshirish imkonini beradi.

Har bir hududning rivojlanish strategiyasi mavjud bo'lib, bu hududni kompleks rivojlantirish, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab quvvatlash, aholi banligini ta'minlash orqali turmush darajasini oshirishga qaratilgan. Albatta har bir strategiya hududning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib amalga oshiriladi, bu o'z navbatida moliyaviy salohiyat: mahalliy byudjetlarning daromad bazasi, soliq salohiyatining kengayishi, byudjetlararo munosabatlarning takomillashuvi, kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi, aholi daromadlarining ko'payishi moliya -kredit institutlarining faoliyatiga bog'liqdir.

Strategik maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha qo'yilgan masalalarni hal qilish ko'pincha integral ko'rsatkichlar hisob - kitoblarga asoslanadi. Integral ko'rsatkichlar hisob - kitobi uchun hudud hususiyatlaridan kelib chiqib hususiy indikatorlar tanlanadi. Indikatorlar bu kompleks ko'rsatkichlar bo'lib, ma'lum jarayon holatini tavsiflaydi va startegiyaning aniqlaydi va uni amalga oshirishning amaliy natijalarini baholaydi. Hudud moliyaviy salohiyatiga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lib, hudud mahalliy byudjet daromadlarini mustahkamlashga qaratiladi.

1-jadval

**2019-2023yy Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda hududlarning
ishtiroki dinamikasi tahlili (mlrd.so'm)**

Hududlar	2020y		2021y		2022y		2023y	
O'zbekiston R.	602551,4	%	734587,7	%	888341,7	%	1066569,0	%
Qoraqapog'iston R.	21949,3	3,6	26250,7	7,4	29925,4	4,0	32916,1	3,5
Andijon	38531,0	6,4	43790,8	4,7	54464,0	8,6	68223,4	5,1
Buxoro	31525,1	5,2	38742,4	6,2	45797,3	4,4	53232,2	5,2
Jizzah	18148,1	3,0	23349,2	7,0	27140,8	4,7	33323,3	5,0
Qashqadaryo	36010,6	6,0	43883,3	7,6	49520,8	5,6	58404,5	5,0
Navoiy	49742,2	8,3	59357,7	7,2	66685,4	5,5	81943,2	5,8
Namangan	27903,2	4,6	34479,8	9,1	41098,2	6,6	47112,6	5,4
Samarqand	43834,7	7,3	53749,9	8,8	62440,3	5,8	74115,3	5,6
Surxondaryo	24912,0	4,1	30090,5	7,8	34858,3	4,0	40909,8	4,4
Sirdaryo	12869,4	2,1	15583,1	10,2	18136,8	5,0	21549,9	5,9
Toshkent	64892,7	10,8	82148,4	10,7	93433,1	5,1	107918,1	5,0
Farg'ona	37612,1	6,3	47331,9	8,0	55972,1	4,6	65718,0	5,5
Xorazm	21615,4	3,6	26900,3	9,2	31963,1	5,7	36916,5	4,4
Toshkent sh.	97545,2	16,2	121829,5	14,1	147414,6	7,9	181859,6	9,3

Iqtisodiy salohiyat va uning elementlaridan biri bo'lgan moliyaviy salohiyatni tavsiflovchi asosiy indikatorlardan biri O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha yalpi hududiy mahsulot dinamikasi va hududlarni rivojlanishi darajasidir. 1 – jadval asosida hududlarning yalpi ichki mahsulotidagi ishtirokini tahlil qilamiz.

1-Jadval ma'lumotlariga asosan, 2019-2023 yillar davomida hududlarning yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda eng katta ulushni Toshkent shahri 2019 yilda 16,3%dan – 2023 yilda 9,3%gacha, Toshkent viloyati 2019 yildan 10,4%dan – 2023 yilda 5,0%gacha, Navoiy viloyati 2019 yildan 6,9%dan – 2023 yilda 5,8%gacha va Andijon viloyati 2019 yildan 6,4%dan – 2023 yilda 5,1%gacha tashkil etdi. Surxondaryo viloyati respublikaning yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda qo'shgan hissasi 2019 yilda 4,2%ga, 2020 yilda 4,1%ga, 2021 yilda 7,8 %ga, 2022 yilda 4,0 %ga, 2023 yilda 4,4%ga teng bo'lgan. Bu kursatkich Respublikamizning Xorazm viloyatida 2019 yil 3,6%dan – 2023 yilda 4,4 %gacha oshgan, Jizzah viloyatida 2019 yilda 3,0% dan – 2023 yilda 5,0%gacha oshgan, Sirdaryo viloyati eng kam ko'rsatkich bilan 2019 yilda 2,3%dan – 2023 yilda 5,0% gacha oshgani kuzatildi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulotning o'sish dinamikasi tahlili

Hududlar	2020y		2021y		2022y		2023y	
O'zbekiston Respublikasi	Mk*	%**	Mk*	%**	Mk*	%**	Mk*	%**
	19515	99,6	23500,9	105,9	27927,8	103,8	32740,6	104,1
Qoraqapog'iston Respublikasi	13356,1	100,2	15359,9	104,8	18112,2	102,4	19820,2	102
<i>Viloyatlar:</i>								
Andijon	13497,4	100,2	15180,8	103,4	19154,3	106,6	22720,5	103,2
Buxoro	18248,5	100,7	21952	105,1	25950,9	103,6	29616,1	103,5
Jizzax	14502,5	100,3	17962,4	106,7	20806,4	102,2	24895,5	103,2
Qashqadaryo	12343,1	99,9	14649,8	105,7	16726,9	104,5	19439,2	102,8
Navoiy	51522,4	104,2	59703,4	105,6	68913,7	104,2	80687	104
Namangan	11522,4	102,5	13889,7	108	16366	106,1	18946,7	104,3
Samarqand	12160	98,9	14854,1	108,1	16930,6	104,2	20198,3	104,4
Surxondaryo	10384,8	100,6	12386,1	107	14127,8	101,8	16482,4	102,3
Sirdaryo	16735,1	99	19389,6	107,4	22708	103,5	26444,2	103,8
Toshkent	23963,2	101,1	31326,7	112,3	34802,4	104,3	39312,3	103,2
Farg'ona	11466,8	102,9	14471	106,7	16644,3	104	19326,3	103,9
Xorazm	12519,6	98	15579,8	109,4	19305,7	105,3	21986,7	103
Toshkent sh.	40679,2	97,6	49410,5	109,7	59280	105,3	70101,7	106
*- joriy narxlarda ming.so'm								
**- o'tgan yilga nisbatan % hisobida.								

Surxondaryo viloyatining yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda qo'shgan hissasi qisqarib borishi yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'atiga va tarkibi

bo'yicha tarmoqlarning qo'shgan qiymat hissasiga bog'liq. Bu tahlil qilinayotgan davrdagi islohotlarning ijtimoiy – iqtisodiy strategiyasining amaldagi ijrosining natijasi hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda qo'shgan hissasi qanchalik ko'p bo'lsa moliyaviy salohiyati va u bilan bog'liq mahalliy byudjet daromadlari mustahkamligi oshadi. Hududlarning yalpi ichki mahsulotni shakllantirishdagi hissasi qanchalik kam bo'lsa shu hududning moliyaviy salohiyatini va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi pastligini bildiradi. Ya'ni bu viloyatlar yuqori byudjetdan ajratiladigan byudjetlararo transfertlarga muhtoj bo'ladi.

Hududlarning rivojlanish darajasini aholi jon boshiga hisoblangan yalpi hududiy mahsulot miqdori ko'rsatkichi asosida ham kuzatamiz.

Keltirib o'tilgan 2-jadval ma'lumotlariga asosan, respublika va hududlar bo'yicha aholi jon boshiga YaIM va YaHMning dinamika ko'rsatkichlari bo'yicha 2023 yilda yuqori darajada Navoiy viloyati 80687 mln.so'm, Toshkent shahri 70101,7 mln. so'mni, Toshkent viloyati 39312,3 mln.so'mni tashkil etgan. Bu hududlarda aholi jon boshiga YaHMning dinamik ko'rsatkichlari 2019 yildan 2023 gacha bo'lgan davrda yuqori sur'atlarini ko'rsatmoqda. Eng past ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida 2023 yilda 16482,4 mln so'm bo'lib, o'tgan 2022 yilga nisbatan o'sish darajasi 102,3%ni tashkil etgan. 2019 yilda 9799,2 mln.so'm bo'lib, o'sish sur'ati 102,1%ga yetgan. Qashqadaryo, Namangan va Farg'ona viloyatlarida nisbatan yuqori bo'lib, 2023 yilda 19820,2 mln.so'm, 18946,7 mln.so'm, va 19326,3 mln so'mni tashkil etgan, o'sish sur'ati 102,8%ni, 104,3%ni va 103,9%ni tashkil etgan. 2019 yilda ham eng past ko'rsatkichlar bilan Namangan viloyati 10205,9 mln.so'm o'sish sur'ati 102,8%ga ko'paygan, Qoraqalpog'iston Respublikasi 12415,8 mln.so'm bo'lib o'sish sur'ati 100,7%ni, Farg'ona viloyati 10252,7 mln.so'mni, o'sish sur'ati 101,1%ni tashkil qilgan. Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga YaHM ko'rsatkichi aholi turmush darajasini ifodalaydi va bevosita moliyaviy salohiyat darajasiga ta'sir qiladi. Hududlar o'rtasida Surxondaryo viloyatida eng past ko'rsatkich ko'zatilgan bo'lib, aholi turmush darajasining past ko'rsatkichlari va hududning moliyaviy salohiyat rivojlanish ko'rsatkichiga teskari ta'siri bilan ifodalanadi.

Yuqorida tahlil qilgan iqtisodiy indikatorlarning respublika hududlari bo'yicha moliyaviy resurslarini shakllantirishda kuchli uchlikni Toshkent shahar, Toshkent viloyati va Navoiy viloyatlari egallamoqdalar, eng ko'yi o'rinni Surxondaryo, Namangan, Qoraqalpog'iston va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri kelmoqda va mahalliy byujet daromadlariga teskari ta'sir ko'rsatib, moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi past ko'rsatkichlar bilan izohlanadi.

Iqtisodiyotni samarli tartibga solish, uning izchil rivojlanishini ta'minlash yalpi hududiy mahsulot miqdori va aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulotni oshirish, uning tarkibiga kiradigan sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash chora – tadbirlari puhta

ishlab chiqilishi lozim. Bu borada 2019-2023 yillarda hududda yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibini sanoat, qishloq xo'jaligi, sohalarini dinamikasini tahlil qilamiz.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida 2019-2023 yy YaHMning tarmoqlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'rtacha o'sish dinamikasi tahlili

(mlrd. so'm, yalpi qushilgan qiymatga nisbatan %da)

Hududlar	2020		2021		2022		2023	
	Mk*	%**	Mk*	%**	Mk*	%**	Mk*	%**
O'zbekiston Respublikasi	367078,9	100,7	451633,9	108,7	551110,1	105,2	655821,2	106,0
Qoraqapog'iston Respublikasi	14144,8	104,1	16621,3	107,4	17794,6	100,6	18803,1	101,1
<i>Viloyatlar:</i>								
Andijon	35593,3	104,6	35916,2	98,6	54122,0	122,6	73579,3	107,3
Buxoro	17567,1	100,6	20826,9	100,1	27245,2	106,2	31633,9	106,1
Jizzah	5560,0	107,1	8704,1	110,2	11149,5	107,8	19000,6	107,4
Qashqadaryo	14574,8	100,5	18741,1	115,3	22814,7	110,5	28259,6	107,1
Navoiy	65116,7	109,4	73631,1	107,0	84144,6	105,7	101594,8	106,7
Namangan	10950,8	115,8	14584,8	117,9	18241,8	109,4	20836,5	107,2
Samarqand	18072,8	102,3	22803,3	110,8	29373,7	109,0	32676,8	105,8
Surxondaryo	5515,9	113,9	6785,9	111,4	7298,7	104,4	8745,4	105,6
Sirdaryo	7928,7	101,0	9765,5	118,5	12175,2	109,5	15190,7	107,1
Toshkent	64765,3	103,8	83202,4	112,6	93002,2	105,1	105762,5	105,1
Farg'ona	21610,6	101,7	27805,3	108,5	30390,5	104,8	36661,2	106,2
Xorazm	9417,0	103,6	13648,5	117,2	18325,8	115,1	21167,9	106,1
Toshkent sh.	66822,8	100,6	860099,6	113,9	107267,6	106,0	105762,5	105,1
*- joriy narxlarda ming.so'm								
**- o'tgan yilga nisbatan % hisobida.								

3-jadval ma'lumotlariga asoslanib yalpi hududiy mahsulotning sanoat tarmog'i bo'yicha tarkibi 2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'rtacha o'sish dinamikasi 106%ni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida 2023 yilda katta salmoqqa Toshkent shahri 105762,5 mlrd.so'm, o'sish sur'ati bo'yicha 105,1 %ni, Toshkent viloyati 105762,5 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 105,1 %ni, Navoiy viloyati 101594,8 mlrd. so'm, o'sish sur'ati 106,7%ni, tashkil qilgan bo'lib, 2019 yilga nisbatan yuqori suratlar bilan Toshkent shahri 52747,5 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati 105,5%ga, Toshkent viloyati 53484,8mlrd.so'mni o'sish sur'ati 107,3%ni, Navoiy viloyati 44438,1 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 104,3%ni, tashkil qilgan. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ko'yi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan viloyatlar 2019 yilda Surxondaryo viloyati 4231,3 mlrd so'm, Sirdaryo viloyati 7293,0 mlrd so'm Namangan viloyati 8818,1 mlrd so'm, Xorazm viloyati 8538,6 mlrd.so'mni tashkil qilib 2023 yilda sezilarli darajada Surxondaryo viloyati 105,6%ga, 8745,4 mlrd.so'm, Sirdaryo viloyati 107,1%ga, 15190,7 mlrd so'm

Namangan viloyati 107,2%ga, 20836,5 mlrd so'm, Jizzah viloyati 107,4%ga, 19000,6 mlrd so'mga, Xorazm viloyatlarida 106,1 %ga, 21167,9 mlrd so'mga oshgan.

O'zbekistonda yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlari bo'yicha turli mulkchilikka asoslangan sanoat korxonalar faoliyatida iqtisodiy salohiyat majmuasidan samarali foydalanishni ta'minlash katta ahamiyatga ega bo'lib, hududlarning moliya salohiyatini oshirish va mahalliy byudjet daromadlarini mustahkamlashda boshqa tarmoqlarga nisbatan samaradorligi yuqoridir. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan, sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash» kabi ustuvor maqsadlar belgilangan. Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarish hajmi dinamikasi ko'payish tendensiyasiga ega, ammo hududlar kesimida eng ko'yi ko'rsatkichlarni egallamoqda. Hududlar bo'yicha sanoat korxonalari ishlab chiqarishini rivojlantirish borasida Surxondaryo viloyatida muayyan ishlar amalga oshirilib, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan 978 ta loyiha uchun 1,8 trln. so'mdan ziyod kreditlar bo'yicha 390 mlrd. so'mlik moliyaviy yordam (kafillik va kompensatsiya ko'rinishida) berilgan. Mahalliyashtirish dasturiga asosan 19 ta loyiha doirasida 56,4 mlrd. so'mdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Bu o'z navbatida hudud moliyaviy salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi hududlar kesimida ijtimoiy – iqtisodiy, demografik omillar ta'sirida moliyaviy salohiyatni oshirishdagi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi mahalliy byudjet daromadlaridagi salmog'ida ham diferensiatsiyasi mavjud, uning dinamikasini va o'rtacha o'sish sur'atlarini 2019-2023 yillar mobaynida ko'yidagi jadval asosida ko'rib chiqamiz.

4-jadval ma'lumotlari asosida, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga 2023 yilda Navoiy viloyatida 95361,7 ming.so'm, Toshkent viloyatida 41228,9 ming so'm, Andijon viloyatida 21908,0 ming so'mni, hamda Toshkent shahrida 34990,5 ming so'mgacha yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatgan. 2019 yilda hududlar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega Navoiy viloyati 44963,4 ming.so'm, Toshkent shahri 20760,0 ming so'm va Toshkent viloyatida 18315,4 ming so'm darajasiga ega bo'lgan viloyatlardir.

4-jadval ma'lumotlariga nazar soladigan bo'lsak, hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'ati 2023 yilda Surxondaryo viloyati 103,1% tashkil etib mutloq ko'rsatkichi qo'yi ko'rsatkich 3077,5 ming so'm bilan, Namangan viloyati 6869,3 ming.so'm, va Qashqadaryo viloyati 8024,9 ming so'm nisbatan yuqori ko'rsatkichlar bilan

chiqmoqda. Bu ko'rsatkich 2019 yilga nisbatan Surxondaryo viloyatida 1449,8 ming so'mni, Namangan viloyati 3699,4 ming so'mni, Jizzah viloyati 9385,2 ming so'mga oshgan.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'rtacha o'sish sur'atlari tahlili (2019-2023y mln.so'm)

Hududlar	2020		2021		2022		2023	
	Mk*	%**	Mk*	%**	Mk*	%**	Mk*	%**
O'zbekiston Respublikasi	10732,2	98,7	12935,2	106,6	15520,2	103	18011,0	103,8
Qoraqapog'iston Respublikasi	7401,5	102,6	8584,9	106,0	9067,7	99,3	9451,4	99,7
<i>Viloyatlar:</i>								
Andijon	11271,1	102,6	11151,3	96,7	16459999,7	120,1	21908,0	105,0
Buxoro	9076,7	99,3	10615,2	98,8	13668,4	104,5	15607,3	104,3
Jizzah	3981,9	104,8	6099,8	107,9	7639,4	105,4	12739,6	105,1
Qashqadaryo	4406,6	98,7	5558,1	113,1	6621,7	108,1	8024,9	104,9
Navoiy	64763,3	107,5	71923,0	105,1	80546,7	103,6	95361,7	104,6
Namangan	3857,1	113,4	5030,5	115,5	6153,7	107,0	6869,3	104,8
Samarqand	4619,4	100,4	5715,8	108,6	7208,5	106,7	7848,6	103,5
Surxondaryo	2077,5	111,5	2502,2	109,1	2630,2	102,0	3077,5	103,1
Sirdaryo	9287,7	99,2	11227,9	116,3	13716,7	107,3	16779,6	105,0
Toshkent	21821,6	102,1	28524,9	113,9	31354,3	103,2	41228,9	102,6
Farg'ona	5708	99,8	7206,8	106,4	7720,3	102,7	9122,2	104,0
Xorazm	5009,6	102,0	7150,5	115,5	9440,6	113,1	10707,9	104,1
Toshkent sh.	2541,8	97,4	30538,8	106,7	36873,8	102,8	34990,5	103,1

Amaldagi mavjud holat Surxondaryo viloyati sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmining kam quvvatligi, to'g'ridan – to'g'ri asosiy fondarga investitsiya loyihalari hajmi kichikligidan dalolat bermoqda. Jumladan, investitsiya loyihalari doirasida 2020 yilda ishga tushirilgan umumiy qiymati 762,6 mlrd. so'mlik 302 ta loyiha biznes rejaga nisbatan 20 foizga kam quvvatda ishlamoqda, shuningdek, ishga tushirilgan 754 ta loyiha asosida 6 ming 480 ta yangi ish o'rni yaratilganligi qayd etilgan bo'lib, yaratilgan ish o'rinlari borasidagi soliq hisobotlari tahlili 547 ta loyiha bo'yicha 4 ming 138 ta ish o'rni haqiqatda yaratilmaganligini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda teskari ta'sirini ko'rsatadi hamda moliyaviy salohiyat pasayadi. Hususan, 183 ta loyihada 1293 ta yangi ish o'rni yaratilganligi qayd etilgan bo'lsa-da, ushbu korxonalar soliq hisobotlarida 2020 yil dekabr oyidagi ishchi-xizmatchilar soni 2019 yil dekabr oyiga nisbatan oshmagan, 123 ta loyihada 1700 ta yangi ish o'rni yaratilganligi qayd etilgan bo'lsada, ushbu korxonalar soliq hisobotlarida ishchilar soni 2019 yil dekabr oyidagi ishchilar soniga nisbatan kamaygan. Mahalliyashtirish dasturi doirasida Termiz

shahridagi «Oravit Ceramic» MChJ tomonidan xorijiy davlatdan o'z vaqtida ishlab chiqarish uskunalari olib kelinmaganligi sababli santexnika jihozlari ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilmagan va 80 ta ish o'rnini yaratilmagan, ya'ni yaratilmay qolgan ish o'rinlari hisobidan ish haqi summalaridan mahalliy byudjet daromadlariga ko'rilgan zarar va moliyaviy salohiyat bo'yicha yo'qotishlar demakdir. 2023-yil yanvar-dekabrda 11 117,3 mlrd. so'm (dollar ekvivalentida 0,933 mlrd. AQSH doll.) yoki 2022-yil yanvar-dekabrda nisbatan 213,9 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 62,0 % ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Sherobod tumani (29,3 %), Boysun tumani (28,6 %) va Termiz shahrida 8,0 % kuzatildi.

O'zbekistonda tayyor mahsulot turlarini kengayitirish va ishlab chiqarishni ko'llab quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelanayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 119,2 trln.so'mni tashkil etdi va 2019 yilga nisbatan 103,6%ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 32,5%ni tashkil etdi.

5-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish va o'sish sur'atlari dinamikasi tahlili (2019 – 2023 y mln.so'm)

Hududlar	2020		2021		2022		2023	
	Mk*	%**	Mk*	%**	Mk*	%**	Mk*	%**
O'zbekiston Respublikasi	10771,8	98,9	13061,9	106,6	15220,2	103,2	18011,0	103,8
Qoraqapog'iston Respublikasi	7401,5	102,6	8584,9	106,0	9067,7	99,3	9451,4	99,7
<i>Viloyatlar:</i>								
Andijon	11271,1	102,6	11151,3	96,7	16459,7	120,1	21908,0	105,0
Buxoro	9076,7	99,3	10615,2	98,8	13668,4	104,5	15607,3	104,3
Jizzah	3981,9	104,8	6099,8	107,9	7639,4	105,4	12739,6	105,1
Qashqadaryo	4406,6	98,7	5558,1	113,1	6621,7	108,1	8024,9	104,8
Navoiy	64763,3	107,5	71923,0	105,1	80546,7	103,6	95361,7	104,6
Namangan	3857,1	113,4	5030,5	115,5	6153,7	107,0	6869,3	104,8
Samarqand	4619,4	100,4	5715,8	108,6	7208,5	106,7	7848,6	103,5
Surxondaryo	2077,5	111,5	2502,2	109,1	2630,2	102	3077,5	103,1
Sirdaryo	9287,7	99,2	11227,9	116,3	13716,7	107,3	16779,6	105,0
Toshkent	21821,6	102,1	28524,9	113,9	31534,3	103,2	34990,5	103,1
Farg'ona	5708	99,8	7206,8	106,4	7720,3	102,7	9122,2	104,0
Xorazm	5009,6	102,0	7150,5	115,5	9440,6	113,1	10707,9	104,1
Toshkent sh.	2541,8	97,4	30538,8	106,7	36873,8	102,8	41228,9	102,6

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning Respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib,

21,7%ni, shuningdek, Toshkent viloyati 16,4% ni, Samarqand viloyati esa 10,5%ni tashkil etadi. Shuningdek, oziq – ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Buxoro viloyati 117,1%, Samarqand 115,1% hamda Toshkent viloyatlarida 112,1% qayd etildi.

Respublika bo'yicha 2023 yilda aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi hajmi 18011,0 ming so'm bo'lgan. Hududlar kesimida ko'yidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rib chiqamiz.

Keltirilgan 5-jadval ma'lumotlaridan aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi bo'yicha 2023 yilda katta ko'rsatkichga Navoiy viloyatida 95361,7 ming so'mni, Toshkent shahrida 41228,9 ming so'mni, Toshkent viloyatida 34990,5 ming so'mni va Andijon viloyatida – 21908,0 ming. so'mni tashkil qilgan hamda 2019 yilga nisbatan, yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, Toshkent shahrida 20760,0 ming.so'mga, Navoiy viloyatida 44963,4 ming.so'mga, Toshkent viloyatida 18315,4 ming so'mda yetakchi urirlarni egallamoqda.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilish hajmi qo'yi ko'rsatkichi 2023 yilda Surxondaryo viloyati 3077,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lib respublikada 22% ulushga ega.

O'rganilayotgan davr mobaynida, hududlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi tahliliy ma'lumotlar asosida nomutanosibliklar aks etganini ko'rishimiz mumkin.

6-jadval

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichi bo'yicha hududlarning taqsimlanishi (2023y)

Hududlarning taqsimlanishi	O'rtacha miqdordan chetlanishi	Hududlar
1-guruh. Hududlar - liderlar	40% va undan dan yuqori	Navoiy viloyati, Toshkent shahar, Toshkent viloyati
2-guruh. Barqaror rivojlano'vchi hududlar	20-40%dan yuqori	Andijon viloyati
3-guruh. Rivojlanayotgan hududlar	20%dan kam chetlanish	Buxoro viloyati, Sirdaryo viloyati,
4-guruh. Ijobiy va salbiy rivojlanayotgan hududlar	20-40%ga chetlanish	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzah, Qashqadaryo, Xorazm va Samarqand viloyatlari
5-guruh. Muammoli hududlar	40%dan ko'proq ortda qolish	Namangan, Surxondaryo, Farg'ona

Hududlar kesimida yetakchi va ortda qolayotgan hududlarini aniqlash uchun har bir hududning o'rtacha miqdoridan chetlanishini tahlil qilamiz. Bu yerda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichi bo'yicha amalga oshiramiz.

6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, hududlarni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichi bo'yicha guruhlaganimizda 1-guruh lider hududlarga Toshkent shahar, Navoiy viloyati va Toshkent viloyati tashkil qildi. Navoiy viloyati yalpi hududiy mahsulotining asosini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tashkil etib, butun hudud miqiyosi erkin iqtisodiy zonaga aylantirilgan. Toshkent shahrida ham sanoat ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatish sohalari rivojlangan bo'lib, 2023 yilda yalpi hududiy mahsulot – 181859,6 mlrd.so'mni tashkil etdi. Barqaror rivojlanayotgan hududlar guruhiga Toshkent shahar kirdi.

Hududlar kesimida salohiyati past hududlarni moliyaviy qo'llab – quvvatlash, ijtimoiy – iqtisodiy strategiyani amalga oshirishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va Vazirlar mahkamasi qarorlari asosida Respublika byudjetidan mablag' ajratishda reja dasturlariga kiritiladi.

Xulosa.

Demak, iqtisodiy salohiyat elementi sifatida moliyaviy salohiyatni baholashning ahamiyati va zarurligi, biz yuqorida keltirib o'tgan tahlil natijalaridan huloa qilishimiz mumkin. Hududlarning moliyaviy salohiyati O'zbekistonning ijtimoiy - iqtisodiy holatini belgilaydi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, hududlarning moliya resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishiga bog'liq. Respublika yalpi ichki mahsulot tarkibida Toshkent shahar, Toshkent viloyati, Navoiy viloyati va Samarqand viloyati yuqori moliyaviy salohiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bizning tahlilimiz bo'yicha Surxondaryo viloyati dinamikasi o'sishni ko'rsatsada, ammo boshqa viloyatlar bilan taqqoslanganda eng kichik ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/5841063#5844066>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Hududlarni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida" PQ - 4702.-01.05.2020
3. Зенченко С.В. Худуднинг молиявий салоҳиятини шаклланишининг замонавий концепцияси //Региональные проблемы преобразования экономики. - №3. - 2007. – с.103-108
4. Вербиев А.А. Финансовый потенциал региона; сущность и подходы к оценке // Вестник Кольского научного центра РАН.-2011. – с.64-66

5. Корчагин Ю.А. Современная экономика России. //Ростов – Дон.//Феникс -2007. – с.543
6. Мерзликина Г.С., Шаховская Л.С., Растяпина О.А. Оценка экономической состоятельности предприятия: //Монография //ВолгГТУ – Волгоград 1998. - с.265
7. Buranova Lola (2020) Investment potential of Surkhandarya area – an element of financial potential/ International journal of advanced research (IJAR)8(07)1262-1267 ISSN:2320-5407
8. Khudaykulov S.K., Buranova L.V. (2021) Classification and significance of factors affecting the financial power of the regions/ Scientific electronic magazine "Economy and innovative technologies". No. 5, September-October, <http://iqtisodiyot.tsue.uz>
9. Buranova L.V. (2021) System of indicators determining the financial potential of surkhandarya region and its features/ Journal of Economy and entrepreneurship DOI: 10.34925/EIP.2021.128.3.116 (pp 598-606)
10. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qumitasi

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

